

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “1941” SHE’RIDA URUSH FOJEASI VA INSONIY SADOQAT TALQINI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asr insoniyat tarixiga mislsiz kulfatlar, sinov va fojealar asri sifatida muhrlangan. Bu davrda yuz bergan voqealar nafaqat butun dunyo siyosiy va ijtimoiy hayotida, balki adabiyot va san’atda ham katta burilish yasadi desak, aslo mubolag’a bo’lmaydi. Ayniqsa, 1939-yil Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va 1941-yilga kelib bu urush Sobiq Sovet Ittifoqi bilan bir qatorda uning tarkibidagi davlatlar eshigini qoqib kelgani millionlab insonlar hayotini, orzu va umidlarini butunlay o’zgartirib yubordi. Bu hayotni o’lim bilan yonma-yon qo’ygan tarixiy burilish nuqtasi edi. Bu yil oddiy yil sana emas, ayriliqlar, adog’iga yetib bo’lmaydigan ko’z yoshlar, kutish va umid yillari sifatida xalqning ong-u shuriga, yuragiga muhrlanib qoldi. Ana shunday tarixiy murakkab va yo’qotishlarga boy yillarni o’zining ta’sirli poetikasi bilan aniq ochib bera olgan mahoratli ijodkor Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. U o’zbek adabiyotida o’ziga xos ovoz sohibi bo’lib, xalq boshidan o’tkazgan qora kunlarni o’zining shaxsiy kechinmalari bilan uyg’unlikda yoritgan, inson qalb torlarini ustalik bilan chertgan namoyanda sanaladi. Faynberg ijodiyotiga nazar solar ekanmiz Vatan, sadoqat, insoniylik, urush va tinchlik mavzulari uning she’riyati bilan chambarchas bog’liqlikka ega ekanligini anglaymiz. Shoir asarlarida yozayotgan voqeliklarni shunchaki so’zlar orqali tasvirlamaydi - u o’sha onlardagi iztirobni chuqur his etadi, o’zi yurakdan o’tkazadi. Shu sababli ham uning asarlari yuksak badiiy va ma’naviy saviyaga ega, o’quvchi olqishiga sazovor bo’ladi. Faynberg ijodiyotidagi o’ziga xoslik shundan iboratki, u katta fojealarni kichik, lekin teran insoniy lavhalar bilan yoritadi. Shoir qalamiga mansub „1941“ she’ri

ham aynan mana shunday xususiyatlari bilan ajralib turadigan asardir.Sarlavhaning o'ziyoq o'quvchini tarixning eng ayanchli,dahshatlarga,yo'qotishlarga to'la,birovni otasidan birovni o'g'lidan ayirgan zulhatli sahifaga olib kiradi.Faynberg ijodini tahlil qilar ekanmiz,shoir uchun eng muhim masala inson qadr-qimmatini va qalb pokligi ekanini tushunib yetamiz.Urush qanchalar dahshatli bo'lmasin insoniylikni yo'q qila olmaydi.Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning yuqorida keltirib o'tganimiz „1941“ she'ri tahliliga bag'ishlanadi.

Abstract: The 20th century is marked in the history of mankind as a century of unprecedented hardships, trials and tragedies. It is no exaggeration to say that the events that took place during this period made a major turning point not only in the political and social life of the whole world, but also in literature and art. In particular, the beginning of World War II in 1939 and the fact that by 1941 this war had reached the doors of the former Soviet Union and its constituent countries completely changed the lives, dreams and hopes of millions of people. This was a historical turning point that put life side by side with death. This year was not an ordinary year, but a year of separation, unfulfilled tears, expectations and hopes, which were imprinted in the minds and hearts of the people. The talented creator who was able to clearly reveal such historically complex and loss-filled years with his impressive poetics is Alexander Arkadyevich Feinberg. He is a great figure in Uzbek literature He is considered a person with a unique voice, who skillfully touched the human heartstrings by illuminating the dark days that the people went through in harmony with his personal experiences. When we look at Feinberg's work, we realize that the themes of homeland, loyalty, humanity, war and peace are closely related to his poetry. The poet does not simply describe the realities he writes about in his works through words - he deeply feels the suffering of those moments, he experiences them from his heart. That is why his works have a high artistic and spiritual level and are appreciated by the reader. The uniqueness of Feinberg's work is that he illuminates great tragedies with small but deeply human scenes. The poem "1941" by the poet is also a work distinguished by such features. The title itself reminds the reader of the most important events in history. It is a tragic, full of horrors, losses, and a dark page that separates someone from their father and

someone from their son. Analyzing Feinberg's work, we understand that the most important issue for the poet is human dignity and purity of heart. No matter how terrible the war is, it cannot destroy humanity. This article is devoted to the analysis of the poem "1941" by Alexander Arkadyevich Feinberg, which we cited above.

Аннотация: XX век вошел в историю человечества как век беспрецедентных трудностей, испытаний и трагедий. Не будет преувеличением сказать, что события этого периода стали поворотным моментом не только в политической и общественной жизни всего мира, но и в литературе и искусстве. В частности, начало Второй мировой войны в 1939 году и тот факт, что к 1941 году эта война достигла стен бывшего Советского Союза и входящих в него стран, полностью изменили жизнь, мечты и надежды миллионов людей. Это был исторический поворотный момент, поставивший жизнь рядом со смертью. Этот год был не обычным годом, а годом разлуки, несбывшихся слез, ожиданий и надежд, которые запечатлелись в умах и сердцах людей. Талантливым творцом, сумевшим своим впечатляющим поэтическим мастерством ясно раскрыть эти исторически сложные и полные потерь годы, является Александр Аркадьевич Файнберг. Он — великая фигура в узбекской литературе. Его считают человеком с уникальным голосом, умело затрагивающим человеческие чувства, освещаая темные дни, которые переживал народ, в гармонии со своим личным опытом. Глядя на творчество Файнберга, мы понимаем, что темы родины, верности, гуманизма, войны и мира тесно связаны с его поэзией. Поэт не просто описывает реалии, о которых пишет в своих произведениях, словами — он глубоко чувствует страдания тех моментов, переживает их сердцем. Именно поэтому его произведения обладают высоким художественным и духовным уровнем и ценятся читателем. Уникальность творчества Файнберга заключается в том, что он освещает великие трагедии небольшими, но глубоко человеческими сценами. Стихотворение «1941» также является произведением, отличающимся такими особенностями. Само название напоминает читателю о важнейших событиях в истории. Это трагическое, полное ужасов, потерь, темная страница, разлучающая одного с отцом, а другого с сыном. Анализируя творчество Файнберга, мы

понимаем, что важнейшим вопросом для поэта является человеческое достоинство и чистота сердца. Какой бы ужасной ни была война, она не может уничтожить человечество. Данная статья посвящена анализу стихотворения Александра Аркадьевича Файнберга «1941», которое мы цитировали выше.

Kalit soʻzlar: 1941 yil, Ikkinchi jahon urushi, urush fojiasi, tarixiy xotira, inson qalbi dramasi, hayot va mamot, ayriliq motivi, muhabbat va sadoqat, vidolashuv sahnasi, badiiy tasvir vositalari, ramziy obrazlar, lirizm, umid timsoli, roʻmol ramzi, vaqt falsafasi.

Keywords: 1941, World War II, war tragedy, historical memory, drama of the human heart, life and death, motif of separation, love and loyalty, farewell scene, means of artistic depiction, symbolic images, lyricism, symbol of hope, symbol of the headscarf, philosophy of time.

Ключевые слова: 1941 год, Вторая мировая война, военная трагедия, историческая память, драма человеческого сердца, жизнь и смерть, мотив разлуки, любовь и верность, сцена прощания, средства художественного изображения, символические образы, лиризм, символ надежды, символ платка, философия времени.

Aleksandr Arkadevich Faynberg barcha urush mavzusidagi asarlari,shu jumladan “1941» da ham urushni titroq bilan yoritib bergan.Bu yil yosh yigitlarning bir zumda askarga aylangan,sevishgan qalblar ayriliq azobini totgan,onalar koʻzidan farzandi deb toʻkkan koʻz yoshlari qurimagan yil.Faynberg xalq boshiga tushgan fojeani bitta vidolashuv epizodini badiiylashtirish bilan koʻrsatib beradi.Buning natijasida asar tarixiy voqea bilan bir qatorda insoniy kechinmalar,his-tuygʻular tadqiq etilgan parchaga aylanadi.Shoir ijodiy mahorati uning eng mashaqqatli,ogʻir mavzularni ham lirizm bilan boyitib asarlar yarata olishida namoyon boʻladi.U yaratgan tasvirlarda oʻq tovushi ham,qadam jarangi ham,shamol ham oʻziga xos maʼno anglatib turadi.Sheʼrlaridagi har bir detalda ramziy yuklama mavjud.1941-yil vaqtning oddiy kesimi emas,hayot va mamot oraligʻidagi chegara,muhabbat bilan ayriliq yuzlashgan nuqta sifatida talqin

etiladi. Muhabbat, sadoqat va umid Faynberg she'riyati qay'u zulmatga cho'ktirgan qalblar uchun yorug' kuch, tayanchdir."1941" she'rida ham shu g'oya yetakchilik qiladi: urush insonlarni bir birlaridan ajrata oladi, biroq ular qalbidagi tuyg'larni so'ndira olmaydi. Ushbu she'rni tahlili b'qilish asnosida biz nafaqat urush yillari, o'sha davrdagi insonlarning qismati, kechinmalari haqida ma'lumotga, qarashlarga ega bo'lamiz, balki Faynbergning badiiy-estetik qarashlarini, inson va zamon o'rtasidagi falsafiy qarashlarini ham anglaymiz.»1941»- bu urushning oddiygina tasviri emas; bu insoniyatning eng og'riqli xotiralari, muhabbat va sadoqatini sinovdan o'tkazgan yillar haqidagi qimmatli badiiy yodgorlik.

1941

Mis o'qlar chiyillar – urush nolasi.

Tosh yo'lda nag'allar chaqnar beshafqat.

Otash bo'sa bilan odam bolasin

Hayot va mamotin ajr etadi vaqt.

Qag'illamay qolgan qarg'alar hatto.

Sevgan qizing ahdga vafodor, ishon.

Qo'lqoplarin silkib vidolashar to

Qorangni yutguncha olis yo'l, tuman.

Qadamlar ostida yoriladi muz.

Gelekon vidosi purkaydi shamol –

Yerga sira qo'nmas sohibjamol qiz

Balkondan qush kabi uchirgan ro'mol.

She'ning ilk misralaridayoq urush dahshatli jonli tovush va harakat tasviri bilan yoritiladi: "Mis o'qlar chiyillar-urush nolasi. Tosh yo'lda nag'allar chaqnar beshafqat." Bu satrlardagi tovush tasviri o'quvchiga urushning vahimali muhitini his ettiradi. O'qlar shunchaki o'tib ketmaydi, ular "nolaydi". Bu o'rinda jonlantirish san'atidan foydalanish orqali shoir urushni jonli, shafqatsiz mavjudot sifatida ko'rsatadi. Nag'allarning tosh yo'lda chaqnashi esa frontga ketayotgan askarlarning qat'iyat bilan, ammo og'ir bosayotgan qadamalarini eslatadi.

Shoir keying misralarda urushning eng dahshatli mohiyatini ochib beradi: "Otash bo'sa bilan odam bolasin hayotning va mamotin ajr etadi vaqt". "Otash bo'sa" bu satrdagi eng kuchli badiiy o'xshatish qurilmasidir. Bu yerda o'q yoki portlash "bo'sa" ga o'xshatilmoqda. Lekin bu "bo'sa" mehri emas, u odamni o'ldiradi. Urush insonlar qismatini bir lahzada o'zgartiradi, hayot va mamot orasidagi to'siqni vaqt ajratadi. Shoir inson hayoti naqadar nozik ekanini afsus bilan ta'kidlaydi.

"Qag'illaydi qolgan qarg'alar hatto" misrasida urush shiddati yana ham shiddatliroq tasvirlanadi. Bilamizki, qarg'a odatda qora xabar, o'lim timsoli sifatida xizmat qiladi. Ammo bu manzarada hatto qarg'alar ham qag'illamay jim bo'lib qolgan. Tabiat ham go'yo dahshatdan jimib qolganday tuyuladi. Bu xuddiki umumiy fojea qoshida insonning ham, tabiatning ham karaxt bo'lib qolishiga o'xshaydi.

She'rdagi keltirilgan vidolashuv sahnasi eng ta'sirli nuqtadir: »Sevgan qizing ahdga vafodor, ishon, Qo'lqoplarin silkib vidolashar to qorangni yutguncha olis yo'l, tuman." Bu yerda urush dahshati muhabbat bilan qarama-qarshilantiriladi. Yigit sevgan yorini ortida qoldirgancha frontga, Vatan himoyasi uchun jang qilishga ketmoqda. Bu satrlarda ayriliq chuqur ramziy tasniflanadi. Yo'l va tuman sevishganlar orasida paydo bo'lgan noaniqlik, xavf hamda olis masofalarni bildiradi.

She'ning so'nggi satri o'ta ramziy va poetligi bilan farqli: "Yerga sira qo'nmas sohibjamolqiz Balkondan qush kabi uchirgan ro'mol". Ro'mol o'zbek an'alarida poklik, sadoqat va muhabbatning badiiy timsoli hisoblanadi. Qizning ro'molni qush misoli

uchirishi uning umid va sevgisini kelajak tomon uchirib yuborganini anglatadi. "Yerga sira qo'nmas" iborasida uning sevgisi, umidi naqadar pok va samimiy ekanligini anglaymiz. Qizning muhabbati yerga tushishni xohlamaydi, u osmon kabi yuksak. Bu orqali shoir urush zulmatiga qarshi chiqqan insoniy tuyg'ularning yengilmas kuchini ko'rsatishga harakat qiladi.

She'ning asosiy bosh g'oyasi- urush insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni soluvchi sinov bo'lsa-da, u insonlar qalbidagi yaxshilik, insoniylikning eng nozik tuyg'ularini vayron qilishga qodir emasligini ko'rsatishdi. Shoir o'z asarida urush keltirgan talofatlarni tasvirlar ekan, bu insoniylik naqadar qudratlik kuchligini ko'rsatish ichun qo'llanilgan fon ekanini anglaymiz. "1941"-umumxalq fojiasi tasviri. She'rda aytib o'tganimiz bari bir qiz va bir yigitning qismati orqali yoritiladi. Asli bu bir sahna butun bir millatning millonlab insonlari tomonidan to'kilgan yosh, vidolashuvlar, yo'lga qadrdonini kutib termulgan ko'zlar timsolidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zining ushbu she'rda insoniyatni qiynagan, millionlab odamlar yostig'ini qurutgan urush voqealarini umuminsoniy fazilatlarini uyg'unlashtirgan holda yoritib bergan. Bu asar kitobxonga urush talofatlari, u sabab bo'lgan ayriliqlar haqida aniq tushuncha berib, xalqni tinchlikka intilish, o'tayotgan farovon kunlarga shukronalik kayfiyatini yo'qotmaslikka chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alexander. F "Qoramaga qasida". Tashkent- 2021
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. Karimova N. Adabiyot va tuyg'u estetiyesi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020.
4. www.ziyouz.com — "Aleksandr Faynberg she'riy merosi" rukni ostidagi maqolalar to'plami
5. Qosimov B. Zamonaviy o'zbek lirikasida falsafiy yo'nalishlar. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.



6. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>